



**TALABALARING VARIATIV YONDASHUVINI O‘RGATISHGA OID
PEDAGOGIK QARASHLAR**

Tojiyev Husniddin Baxtiyorovich
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti o‘qituvchisi

Anotatsiya. Variativlik tushunchasi zamonaviy pedagogikaning asosiy tamoyillaridan biri bo‘lib, u ta’lim jarayonini shaxsga yo‘naltirilgan, innovatsion va fleksobil tarzda tashkil etish imkoniyatini beradi. Bu yondashuv orqali o‘quvchilarning individual qobiliyatlari va extiyojlarini qondirish, ularning bilim sifatini oshirish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish mumkin. Ayniqsa, zamonaviy ta’lim jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish va faoliyatga tayyorlashning didaktik tizimini takomillashtirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Biz ham ushbu maqolada talabalarni ta’lim jarayonida variativ asosida yondashuvga o‘rgatishni takomillashtirishga qaratilgan pedagogik qarashlarni tahlil qilamiz. Maqola keng auditoriyaga mo’ljallangan bo‘lib, tadqiqotning nazariy jihatlarini qamrab oladi.

Kalit so‘zlar. o‘quv jarayoni, variativlik, variativ yondashuv, metodologiya, ta’lim samaradorligi, innovatsion usullar, ta’lim, pedagogik qarashlar.

**PEDAGOGICAL APPROACHES TO TEACHING STUDENTS’ VARIATIVE
APPROACH**

Annotation. The concept of variability is one of the main principles of modern pedagogy, which provides an opportunity to organize the educational process in a person-oriented, innovative and flexible way. Through this approach, it is possible to satisfy the individual abilities and needs of students, improve the quality of their knowledge and develop their creative abilities. Especially in the process of modern education, great attention is paid to the development of the professional competence of future teachers and improvement of the didactic system of training. In this article, we also analyze the pedagogical views aimed at improving the teaching of students on the basis of a variant approach to the educational process. The article is intended for a wide audience and covers the theoretical aspects of the research.

Keywords. educational process, variation, variational approach, methodology, educational efficiency, innovative methods, education, pedagogical views.

**ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ОБУЧЕНИЮ СТУДЕНТОВ
ВАРИАТИВНЫЙ ПОДХОД**

Аннотация. Концепция вариативности является одним из основных принципов современной педагогики, который дает возможность организовать образовательный процесс личностно-ориентированным, инновационным и гибким образом. Благодаря такому подходу можно удовлетворить индивидуальные способности и потребности студентов, повысить качество их знаний и развить творческие способности. В частности, в процессе современного образования большое внимание уделяется развитию профессиональной компетентности будущих учителей и совершенствованию дидактической системы обучения. В данной статье мы также анализируем педагогические взгляды, направленные на совершенствование обучения студентов на основе вариативного подхода в образовательном процессе. Статья рассчитана на широкую аудиторию и освещает теоретические аспекты исследования.

Ключевые слова. образовательный процесс, вариация, вариационный подход, методика, эффективность обучения, инновационные методы, образование, педагогические взгляды.

Kirish. Jahonda globallashuv jarayonlarining intensivlashuvi shaxsda pedagogik qarashlarning barqarorligini ta’minlashga bo‘lgan e’tiborni yanada kuchaytirib, ta’lim tizimida variativ modellashtirishga bo‘lgan ehtiyojning ortib borishiga sabab bo‘lmoqda. Xususan, pedagogik ta’lim jarayonining variativ modellarini ishlab chiqish va pedagogik jarayonda amaliy foydalanish natijalari bo‘yicha AQSh, Yaponiya, Angliya, Germaniya, Finlyandiya, Janubiy Koreya kabi mamlakatlar yetakchilik qilmoqda. Bu kabi rivojlangan davlatlardagi xorijiy tajribalar bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik ko‘nikmalarini shakllantirishda variativ modellashtirishdan foydalanish jarayonini takomillashtirish hamda pedagogik qadriyatlar asosida rivojlantirish muhim.

Variativlik – bu bir xil maqsadga erishish uchun turli yo‘llar, usullar va metodlarning mavjudligini anglatadi. Bu tushuncha ta’limda, psixologiyada, iqtisodiyotda va boshqa sohalarda keng qo‘llaniladi. Variativlik bir xil masalani xal qilishda turli variantlarning ishlatalishini ta’minlaydi. Variativ yondashish asosida talabalarda pedagogik faoliyatga moslashuvchanlik, kompetentlik hamda pedagogik bilimini rivojlantirish muammosi bo‘yicha dunyoning ko‘plab ilmiy-tadqiqot markazlari va ta’lim muassalarida, xususan, “Pedagogical Education Cluster: Problems and Solutions” pedagogik klaster, Bonn dekloratsiyasi, “Lifelong learning” 2030-yilgacha xalqaro ta’lim konsepsiysi, Leybnis nomidagi hayot davomida ta’lim olish Markazi va xalq universitetlari nemis assotsiatsiyasi xalqaro hamkorlik instituti, Curriculum globale variativ dasturi, Massachusetts ixtisoslashgan markazi, Manchester ixtisoslashgan markazi, Kaliforniya universiteti, Kumon institutida tadqiqotlar olib borilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bilamizki, kishilik jamiyati taraqqiyotining turli davrlarida ustoz va murabbiylar oldiga qo‘yiladigan talablar, ularning mahorati, e’tiqodini shakllantirish muammosining turli yo‘nalishlari, xususiyatlari yuzasidan ilmiy asoslangan g‘oyalar, fikrlar, qarash va yondashuvlar bayon etilgan. Jumladan, zamonaviy pedagogika

fanining ibtidosi bo‘lgan xalq pedagogikasi va eng qadimgi milliy-ma’naviy qadriyatlar – “Avesto”, O‘rxun-Yenisey yodgorliklari, Qur’oni karim va Hadisi sharifda, Markaziy Osiyo allomalari – Abu Nasr Forobi, Abu Ali Ibn Sino, Nasriddin Tusiy, Kaykovus, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur hamda jadid ma’rifatparvarlari – Abdulla Avloniy, Maxmudxo‘ja Behbudiy, Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov kabilarning yozgan darsliklari, risolalari, ilmiy maqolalarida yosh avlod tarbiyasi va pedagoglik kasbining jamiyat taraqqiyotidagi o‘rniga alohida e’tibor qaratilgan.

Misol tariqasida birgina buyuk bobokalonlarimiz Xorazmiy, Beruniy, ibn Sino, Forobi, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Ali Qushchi, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Behbudiy, Abdulla Avloniy, Fitrat kabilarning ilm va o‘z tanlagan yo‘liga qo‘ygan yuksak tafakkuri va fidoyiligini keltirishimiz mumkin. Jumladan, buyuk sarkarda Amir Temurning mustahkam tafakkuri, uning Chingiziylar ustidan g‘alaba qozonishiga va katta bir markazlashgan davlatni barpo etishiga sabab bo‘lgan bo‘lsa, Alisher Navoiyning bilim olish va ilmga bo‘lgan tafakkuri esa uni jahonga mashhur qildi.

Keyingi davrlarda ham ushbu muammoning turli yo‘nalishlarini tadqiq etish masalasi bilan respublikamiz olimlaridan M.Ochilov, S.Qahhorov, R.X.Djurayev, T.G'afforova, R.Shodiyev, N.Muslimov, B.Adizov, R.X.Fayzullayev, X.A.Yulbarsova, D.A.Mustafoyeva, D.Himmataliyev, O.Musurmonova, M.Urazova, Sh.Nurullayeva kabi yetakchi pedagoglar shug‘ullanishgan.

Demak, yuqorida tahlillarga ko‘ra, shuni ta’kidlashimiz lozimki, variativlik tushunchasi ko‘p sifatga ega tushuncha hisoblanadi. Zero, ijtimoiy hayotda har bir jarayon, hodisaning o‘ziga xos variativi bor. Ilmiy izlanishlarda variativ ta’lim ijodiy faoliyat jarayonida shaxsning individuallik xususiyatini rivojlantiruvchi omil sifatida izohlanadi [1]. Bilamizki, ta’lim jarayonida egallagan bilimlarni aniq amaliy vaziyatlarda qo‘llashda qiynaladilar va ulardagi ko‘nikmalar asosan reproduktivlik kasb etadi. Variativ ta’limda esa egallagan bilimlarida ijodiy yo‘nalganlik kuchayadi. Variativ ta’lim – zamonaviy sharoitda ta’lim iste’molchisi sifatida talabalarga ta’lim xizmatlarini tanlash imkoniyatini beradi hamda har bir zamonaviy ta’lim muassasasining rivojlanish yo‘lini belgilaydi.

Tahlil va natija. Variativ so‘zi lotincha “variatio” (o‘zgarish, xilma-xillik) so‘zidan olingan bo‘lib, u muayyan jarayon yoki hodisaning bir nechta shaklda, turli variantlarda mavjud bo‘lishi va rivojlanishi imkoniyatini anglatadi. Pedagogikada “variativ” tushunchasi ta’lim jarayonida bitta an’anaviy metod yoki yondashuv bilan cheklanmasdan, turli ta’lim texnologiyalari, metod va modellardan foydalanish imkoniyati mavjudligini bildiradi. Bunda o‘quv jarayonidagi variantlar o‘quvchilarning individual xususiyatlari, qobiliyatları va ehtiyojlariga moslashtiriladi [2].

Demak, variativ yondashuv – bu ta’limda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni ta’minlaydigan, individual rivojlanishga yo‘naltirilgan, zamonaviy va innovatsion metodikadir. U maktabgacha ta’limdan oliy ta’limgacha bo‘lgan jarayonda qo‘llanilib, ta’lim sifatini

oshirish, o‘quvchilarning qiziqishini kuchaytirish va ularning shaxsiy ehtiyojlarini qondirish imkonini yaratadi.

Ilk bor dunyoda variativlik atamasi XX asrning 80-yillarining o‘rtalaridan boshlab qo‘llanila boshlangan. 1990-yillarda jahoning rivojlangan mamlakatlarda boshlangan ta’lim islohotlari noan’anaviy va variativ ta’lim tizimlarining rivojlanishiga asos bo‘ldi. Jumladan, Waldorf maktabi, M.Montessori maktabi va A.N.Tubelskiyning o‘z taqdirini o‘zi belgilash maktabi, D.Govard kabi maktablar shular jumlasidandir. Keyinchalik Yaponiya, Amerika, Germaniya, Rossiya kabi xorijiy mamlakatlarda variativ ta’limga zamonaviy ta’limning muhim turi sifatida qaralmoqda va shaxs individulligini rivojlantirishning asosiy omili deb e’tirof etilmoqda.

Ta’lim jarayonida variativ yondashuvga o‘rgatish metodikasining yangiligi va ahamiyati bugungi ta’lim tizimining tezkor rivojlanishi hamda o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini inobatga olish zaruriyati bilan bog‘liq. Ilgari amalga oshirilgan tadqiqotlarda, masalan, Vygotskiy va Piagetning rivojlanish nazariyasi doirasida o‘quvchilarni individual xususiyatlariga mos ravishda o‘qitishning ahamiyati yoritilgan. Bu tadqiqotlar, o‘quv jarayonini o‘quvchilarning psixologik va kognitiv xususiyatlariga moslashtirish orqali ta’lim samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Bundan tashqari, zamonaviy pedagogika sohasida, Flipped Classroom (aynalangan sinf) va Project-Based Learning (loyihaga asoslangan o‘qitish) kabi innovatsion yondashuvlar keng qo‘llanilmoqda. Ushbu metodlar, o‘quvchilarga o‘z-o‘zini boshqarish, ijodiy fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. O‘quv jarayonida variativ yondashuvni qo‘llash, o‘qituvchilarga ta’limning turli usullarini birlashtirish imkonini beradi, bu esa o‘quvchilarning faolligini oshiradi.

Yangi yondashuvlar, o‘quvchilarning ehtiyojlarini, qobiliyatlarini va motivatsiyasini inobatga olgan holda, ta’lim jarayonini yanada individualizatsiyalash va moslashtirishga imkon beradi. Bunda, o‘qituvchilar o‘z pedagogik tajribalarini zamonaviy texnologiyalar bilan birlashtirib, ta’lim jarayonini yanada innovatsion va samarali qilishga erishishlari mumkin.

Talabalarni ta’lim jarayonida variativ asosida yondashuvga o‘rgatish metodikasining dolzarbligi, zamonaviy ta’lim tizimlarining rivojlanishi va global ijtimoiy o‘zgarishlar sharoitida yanada oshadi. Bugungi kunda talabalar, nafaqat bilim olish, balki mustaqil fikrlash, ijodkorlik va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini egallashlari zarur. Bu esa, o‘z navbatida, ta’lim jarayonida innovatsion va variativ asosida yondashuvlarni joriy etishni taqozo etadi [3].

Bilamizki, variativ asosida yondashuv, ta’lim jarayonida talabalarining individual ehtiyojlari va qobiliyatlarini hisobga olish imkonini beradi, bu esa ularning o‘z-o‘zini anglashiga, o‘z maqsadlariga erishishiga yordam beradi. Talabalarining o‘z fikrlarini erkin ifoda etishlari, turli nuqtai nazarlarni qabul qilishlari va o‘z bilimlarini amaliyotda qo‘llashlari, ta’lim samaradorligini oshiradi. Shuningdek, ushbu mavzu, pedagoglar va ta’lim muassasalari uchun ham muhimdir. Ta’lim metodikasini takomillashtirish, pedagogik jarayonni yanada samarali tashkil etishga, ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Variativ asosida yondashuvni o‘z ichiga

olgan ta’lim metodlari, talabalarni hayotda muvaffaqiyat qozonishlari uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalar bilan ta’minlaydi.

Shunday qilib, talabalarni ta’lim jarayonida variativ asosida yondashuvga o‘rgatish metodikasini takomillashtirish, nafaqat ta’lim sifatini oshirish, balki kelajak avlodning ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishiga, innovatsion g‘oyalarni amalga oshirishiga xizmat qiladi. Bu masalaning dolzarbliji, uning kelajakda ta’lim tizimini rivojlantirish uchun ahamiyatli ekanligini ko‘rsatadi.

Bugungi kunda shaxsning tafakkurini milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslanib shakllantirish, ulardagi insonparvarlik g‘oyalariiga amal qilishni o‘rgatish zaruriyati o‘ta dolzarb vazifa bo‘lib turibdi. Zero, milliy va umuminsoniy qadriyatlarda yuksak insoniy-axloqiy qoidalar o‘z ifodasini topgan bo‘lib, shaxs tarbiyasida faqat va faqat ularga tayanishimiz mumkin. Ayniqsa, qadriyatlarda shaxs tafakkurini shakllantirish masalasi asosiy o‘rinni egallaydi.

Jahonda variativ ta’limdan foydalanish va uning o‘ziga mos modelini yaratishda har bir davlat ta’lim tizimi o‘zining ichki, milliy va mintaqaviy imkoniyatlariga tayanadi. Biroq qaysi bir davlat o‘z tajribasida variativ ta’limdan foydalanmasin, uning negizida umumiy bir maqsad – shaxsning individulligini rivojlantirish yotadi [4].

Bilamizki, variativ asosida yondashuv, ta’lim jarayonida talabalarining individual ehtiyojlari va qobiliyatlarini hisobga olish imkonini beradi, bu esa ularning o‘z-o‘zini anglashiga, o‘z maqsadlariga erishishiga yordam beradi. Talabalarining o‘z fikrlarini erkin ifoda etishlari, turli nuqtai nazarlarni qabul qilishlari va o‘z bilimlarini amaliyotda qo‘llashlari, ta’lim samaradorligini oshiradi. Shuningdek, ushbu mavzu, pedagoglar va ta’lim muassasalari uchun ham muhimdir. Ta’lim metodikasini takomillashtirish, pedagogik jarayonni yanada samarali tashkil etishga, ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Variativ asosida yondashuvni o‘z ichiga olgan ta’lim metodlari, talabalarni hayotda muvaffaqiyat qozonishlari uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalar bilan ta’minlaydi.

Shunday qilib, talabalarni ta’lim jarayonida variativ asosida yondashuvga o‘rgatish metodikasini takomillashtirish, nafaqat ta’lim sifatini oshirish, balki kelajak avlodning ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishiga, innovatsion g‘oyalarni amalga oshirishiga xizmat qiladi.

Xulosa. Variativ yondashuv – bu ta’limda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni ta’minlaydigan, individual rivojlanishga yo‘naltirilgan, zamonaviy va innovatsion metodikadir. U mактабгача ta’limdan oliy ta’limgacha bo‘lgan jarayonda qo‘llanilib, ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarining qiziqishini kuchaytirish va ularning shaxsiy ehtiyojlarini qondirish imkonini yaratadi. Shu sababli, pedagogika sohasida variativ yondashuvni takomillashtirish va uni keng qo‘llash – zamonaviy ta’lim tizimidagi eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Talabalarni zamonaviy ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishga tayyorlashda muhim rol o‘ynaydi. Bunday yondashuvlar, talabalarni kelajakda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishga tayyorlashga xizmat qiladi va ta’lim tizimining rivojlanishiga xizmat qiladi. Shunday qilib,

tadqiqot natijalari, ta’lim jarayonini takomillashtirish va talabalarni innovatsion yondashuvlar orqali tayyorlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ilmiy va amaliy ko‘rsatmalarni taqdim etadi.

ADABIYOTLAR:

1. Очилов М. Муаллим - қалб меъмори. –Тошкент, Ўқитувчи. 2001. – 432 б.,
2. Джураев Р.Х. Таълимда интерфаол технологиялар. –Тошкент, ЎзПФИТИ. 2010. – 133 б.
3. Қаҳхоров С.К., Жўраев Х.О. Медиатаълимнинг ривожланиш босқичлари // Педагогик маҳорат. – Бухоро, -2017. 1-сон. 36–39 б.
- 4.Faффорова Т. Бошланғич таълим самарадорлигига эришишнинг педагогик шартшароитлари. –Тошкент, 2016. – 128 б.
5. Шодиев Р.Д. Дидактические основы реализации проблемы понимания в учебно-позновательной деятельности. 13.00.01. -Теория и история педагогики. Диссертация на соискание ученой степени доктора педагогических наук. – Ташкент, 2004. –284 с.
6. Majidova G. A. Umumta’lim maktablarida immersiv texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmasini oshirish. MUALLIM HƏM O‘ZLIKSIZ BILIMLENDIRI, Ilimiy-metodikalıq jurnal. 2023. 2/1-san. 142-b.
7. Wiggins, G., & McTighe, J. (2005). Understanding by design. Association for Supervision and Curriculum Development.
8. Горбаткина И.М. Формирование готовности студентов педагогических вузов к профессиональной деятельности в условиях вариативного образования: автореферат дис. ... кандидата педагогических наук: 13.00.01 / Мос. город. пед. ун-т. - Москва, 2003. 16 с.